

**NAVOIY VILOYATI HUDUDIY ARXIV ISHI
BOSHQARMASI TO'G'RISIDA
N I Z O M**

I. UMUMIY QOIDALAR

1. Navoiy viloyati arxiv ishi hududiy boshqarmasi (keyingi o'rinlarda – Boshqarma deb yuritiladi») arxiv ishi bo'yicha davlat boshqaruvining Navoiy viloyatidagi maxsus vakolatli organi hisoblanadi. U o'z ish faoliyatida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi «O'zarxiv» agentligiga va Navoiy viloyati hokimligiga buysunadi hamda o'z faoliyati yuzasidan ularga hisobot beradi.

2. Boshqarma tizimiga viloyat hududida faoliyat yuritayotgan viloyat, shahar va tuman davlat arxivlari kiradi. Shahar va tuman davlat arxivlari boshqarmaga hamda o'z navbatida hududiy joylashuviga muvofiq shahar va tuman hokimliklariga buysunadilar.

3. Boshqarma o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga, O'zbekiston Respublikasi qonunlariga, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining qarorlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qaror va farmoyishlariga, Navoiy viloyati hokimining qarorlari va farmoyishlariga, "O'zarxiv" agentligining nizomlari, yo'riqnomalari, qoidalari, qarorlari, farmoyishlari, buyruqlari va ko'rsatmalariga hamda «O'zarxiv» agentligi Bosh direktori tomonidan tasdiqlangan va Navoiy viloyati hokimi bilan kelishilgan ushbu Nizomga amal qiladi.

4. Boshqarma o'ziga yuklatilgan vazifalarni bevosita, shuningdek o'z faoliyatini shahar va tuman hokimlari bilan kelishgan holda Boshqarma tomonidan tasdiqlangan ular to'g'risida nizomlar asosida amalga oshiruvchi o'ziga bo'ysunadigan arxiv muassasalari orqali amalga oshiradi.

5. **BOSHQARMANING ASOSIY VAZIFALARI VA FUNKSIYALARI**

6. Quyidagilar Boshqarmaning asosiy vazifalari hisoblanadi:
viloyatda arxiv ishi va ish yuritish sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshirish;

viloyatdagi boshqaruv organlari, xo'jalik sub'ektlari, korxonalar, tashkilotlar, fermer xo'jaliklari, davlat arxivlari, idoraviy va idoralararo arxivlarda, shuningdek nodavlat arxivlarda arxiv ishi va ish yuritish sohasidagi qonun hujjatlarining bajarilishi ustidan ta'sirchan nazoratning amalga oshirilishini ta'minlash;

tashkilotlarda arxiv ishi va ish yuritishning holatini tahlil qilish, tendensiyalari va qonuniyatlarini o'rganish, uni rivojlantirish;

viloyat davlat arxivlarida saqlanayotgan O'zbekiston Respublikasi Milliy arxiv fondi hujjatlarini shakllantirish, ularning saqlanishini, davlat hisobi yuritilishini ta'minlash va ulardan foydalanish;

viloyatdagi davlat arxivlarining arxivshunoslik va arxeografiya, ish yuritish, elektron hujjat aylanishi sohasidagi ilmiy va metodik ishlarini tashkil etish va muvofiqlashtirish, ilmiy-tadqiqotlar natijalarini va ilmiy-texnika yutuqlarini arxiv muassasalari va idoraviy arxivlar amaliyotiga joriy etish;

viloyatdagi davlat arxivi muassasalari va tashkilotlarda, shuningdek nodavlat arxivlarida arxiv ishi va ish yuritishni yanada rivojlantirish va takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish;

viloyat davlat arxivlarini boshqarish va muvofiqlashtirish, ularning sifatli, ishonchli va samarali faoliyat yuritishini ta'minlash;

arxiv ishi va ish yuritish sohasidagi mamlakatimiz va chet el ilg'or ish tajribasini o'rganish va ommallashtirish;

viloyat hududidagi Davlat mulki bo'lgan arxiv hujjatlarini yoki ularning o'rnini bosuvchi nusxalarini, shuningdek Milliy arxiv fondining davlatga tegishli bo'lmagan qismi tarkibiga kiritilgan arxiv hujjatlarini yoki ularning o'rnini bosuvchi nusxalarini O'zbekiston Respublikasidan tashqariga olib chiqish bo'yicha ma'lumotlarni "O'zarxiv" agentligiga taqdim etib borish;

O'zbekiston Respublikasi Milliy arxiv fondiga tegishli bo'lgan axborot resurslarini saqlashni ta'minlaydigan elektron arxivlarni tashkil etish, faoliyat ko'rsatishini tashkillashtirish va muvofiqlashtirish;

6. Boshqarma o'ziga yuklangan vazifalarga muvofiq quyidagi funksiyalarni bajaradi:

viloyatda arxiv ishi va ish yuritishning milliy dasturlari va konsepsiyalarining amalga oshirilishini tashkil etish;

viloyat davlat va nodavlat arxivlarida saqlanayotgan O'zbekiston Respublikasi Milliy arxiv fondi hujjatlarini jamlash, davlat hisobini olib borish, saqlash va ulardan foydalanish masalalari bo'yicha viloyat hokimi qaror va farmoyish loyihalarini ishlab chiqish hamda belgilangan tartibda viloyat hokimligiga kiritish va ularning amalga oshirilishini ta'minlash;

viloyatda arxiv ishini rivojlantirish va arxivlar faoliyatini qo'llab-quvvatlash bo'yicha davlat dasturlarini ishlab chiqish amalga oshirish;

viloyat davlat arxivlarida O'zbekiston Respublikasi Milliy arxiv fondi hujjatlarini jamlash, saqlash, davlat hisobini olib borish, ro'yxatga olish va ulardan foydalanishni tashkil etish;

viloyatda arxiv ishi sohasida qonunlarga rioya qilinishini yuzasidan nazorat va monitoringni amalga oshirish;

idoraviy arxivlar ishiga tarmoqlararo tashkiliy-metodik rihbarlikni va nazoratni, davlat hokimiyati va boshqaruvi viloyat organlari ishlarini yuritishda hujjatlarning tashkil etilishini nazorat qilish;

O'zbekiston Respublikasi Milliy arxiv fondi to'g'risidagi Nizomga muvofiq boshqarmaning fond katologida tizimdagi davlat arxivlarida, idoralar, birlashgan idoralar, idoralararo, nodavlat arxivlarida, jamoat tashkilotlari va fuqarolar mulki bo'lgan O'zbekiston Respublikasi Milliy arxiv fondi hujjatlarining davlat hisobini yuritish va ular to'g'risida O'zbekiston Respublikasi vazirlar Mahkamasi huzuridagi «O'zarxiv» agentligiga o'rnatilgan tartibda ma'lumot taqdim etish;

viloyatda arxiv ishini rivojlantirishni joriy va istiqbolli rejalarini ishlab chiqish, ularning bajarilishini ta'minlash;

davlat arxivlari shaxobchalarini rivojlantirish va ularning tuzilmalarini takomillashtirish bo'yicha ishlarni belgilangan tartibda tashkil etadi va amalga oshiradi;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi "O'zarxiv" agentligi bilan kelishilgan holda Navoiy viloyati hududida davlat arxivlarini tashkil etish yoki tugatish to'g'risida viloyat hokimligiga taklif kiritadi. Yangi davlat arxivlarini tashkil etish to'g'risidagi viloyat hokimi qaror loyihalarini O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi "O'zarxiv" agentligi va O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi bilan kelishishga ko'maklashadi;

viloyat davlat arxivlarida arxivshunoslik, hujjatshunoslik va arxeografiya sohasidagi ilmiy-metodik ishlarni tashkil qilish, ilmiy tadqiqotlar natijalarini, shuningdek ilmiy-texnika yutuqlarini arxiv ishi va ish yuritish amaliyotiga joriy etish choralari ishlab chiqadi va amalga oshiradi;

hujjatlarning, shu jumladan davlat axborot resurslarining ilmiy va amaliy qimmatligini ekspertizadan o'tkazishni hamda ularni doimiy saqlash uchun davlat arxivlariga, shu jumladan, elektron arxivlarga tanlab olishni tashkil qiladi;

korxonalar, tashkilot va fuqarolarning tarixiy hujjatli yodgorliklarni to'plash bo'yicha ruxsatnoma berishni so'rab qilgan murojaatlarini o'rnatilgan tartibda ko'rib chiqadi va ular bo'yicha xulosalar tayyorlaydi hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi «O'zarxiv» agentligiga ko'rib chiqish uchun taqdim etadi, tarixiy hujjatli yodgorliklarni to'plash bo'yicha maxsus ruxsatnomalarni qayd etib boradi va ularni to'plab borilishini Navoiy viloyati hududida nazorat qiladi;

tizimdagi davlat arxivlarida saqlanayotgan arxiv hujjatlarini, shu jumladan O'zbekiston Respublikasi Milliy arxiv fondi hujjatlarining tarkibi va mazmuni to'g'risidagi ma'lumotnoma-axborot adabiyotlarini nashr etish, retrospektiv axborotlarga bo'lgan ijtimoiy ehtiyojlarni va hujjatlardan foydalanish samaradorligini o'rganish;

chet eldagi O'zbekiston tarixiga oid arxiv hujjatlarini aniqlash va ularni yoki ularning nusxalarini sotib olish ishlarida ishtirok etish;

viloyatda hujjatlari O'zbekiston Respublikasi Milliy arxiv fondi tarkibiga kiritilishi kerak bo'lgan davlat korxonalari, muassasalari va tashkilotlari toifasini belgilaydi;

arxiv ishi va ish yuritish sohasidagi mamlakatimiz va chet el ilg'or ish tajribasini o'rganadi va ommalashtiradi;

arxiv ishi va ish yuritishda hujjatlarni tashkillashtirish bo'yicha kengashlar va seminarlar tashkil etadi;

qonunchilik bilan belgilangan tartibga muvofiq davlat arxivlari tomonidan pulli xizmatlar ko'rsatishni tashkil qiladi va xizmat turlarini doimiy ravishda rivojlantirish bo'yicha choralar qabul qiladi;

Navoiy viloyati hududida arxiv ishi va ish yuritishni rivojlantirishga yo'naltirilgan investitsiyalarni, jumladan chet el grantlari va boshqa chet el loyihalarini jalb qilish va sifatli amalga oshirishni ta'minlaydi;

viloyat, shahar va tuman davlat arxivlari faoliyatiga rahbarlik qiladi va tegishli hudud hokimlari bilan kelishuv asosida ularning Nizomlarini tasdiqlaydi;

davlatga tegishli bo'lmagan O'zbekiston Respublikasi Milliy arxiv fondi hujjatlarini sotib olish yuzasidan davlatning imtiyozli huquqini amalga oshiradi va bu borada tizimdagi davlat arxivlariga ko'maklashadi;

viloyat mahalliy byudjet loyihasiga bevosita bo'ysungan davlat arxivlari ta'minotiga oid xarajatlar to'g'risidagi takliflarni ishlab chiqadi, ularning moliyalashtirilishi va sarflanishini nazorat qilishni ta'minlaydi;

arxiv muassasalari, idoraviy arxivlar hamda viloyat korxonalar, muassasalar, tashkilotlarning ish yuritish xizmati xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni tashkil etadi;

arxiv ishi va ish yuritish sohasida kadrlarni sifatli tayyorlashda viloyatdagi oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar o'quv muassasalariga ko'maklashadi;

O'zbekiston Respublikasi Milliy arxiv fondining axborot resurslari va elektron hujjatlari himoya qilinishini ta'minlaydi;

O'zbekiston Respublikasi Milliy arxiv fondini nodir, alohida qimmatli va noyob hujjatlar jumlasiga o'rnatilgan tartibda kiritish hamda sug'urta nusxalarini yaratish va saqlashni tashkil qiladi;

fuqarolarning takliflari, arizalari va shikoyatlarini o'z vaqtida ko'rib chiqilishini tashkil qiladi, konsullik so'rovlari bajarilishini ta'minlaydi, bu borada davlat va nodavlat arxivlari rahbarlarining hisobotlarini eshitadi;

foydalanuvchilarning xuquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish; hududdagi davlat arxivlarining jamlash manbalariga kiritilgan tashkilotlarning ro'yxatini tasdiqlaydi;

viloyat hududidagi davlat arxivlarida saqlanayotgan tuzatib bo'lmaydigan darajada zararlangan hujjatlarni hisobdan chiqarish to'g'risida qaror qabul qiladi;

O'zbekiston Respublikasi Milliy arxiv fondining Davlat katalogi to'g'risidagi Nizomga asosan Boshqarmaning fond katalogini yuritadi hamda belgilangan tartibda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi "O'zarxiv" agentligiga ma'lumotlar taqdim etadi;

viloyat, shahar va tuman davlat arxivlari hamda hududdagi idoraviy arxivlar mutaxassislarining O'zbekiston Respublikasi korxonalar, muassasalari va tashkilotlari hujjatlarini tartibga keltirishga kompetentligi yuzasidan attestatsiyadan o'tkazishni tashkil etadi;

yangi tashkil qilinadigan arxivga arxiv hujjatlarini saqlash sharoitlari va arxivning ta'minlanganligi darajasi yuzasidan ekspert-tekshiruv komissiyasi xulosasini beradi;

Boshqarma qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa funksiyalarni ham bajaradi.

III. BOSHQARMANING XUQUQLARI VA JAVOGBARLIGI

7. Boshqarma quyidagi huquqlarga ega:

arxiv ishini rivojlantirish va ish yuritishda hujjatlarni tartibga solishni etishni takomillashtirish to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi «O'zarxiv» agentligi va Navoiy viloyati hokimligiga ko'rib chiqish uchun takliflar kiritish;

mahalliy davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, idoraviy bo'ysunishidan va mulkchilik shakllaridan qat'iy nazar korxonalar, muassasa va tashkilotlar hamdanodavlat arxivlarining idoraviy saqlash bosqichidagi arxiv hujjatlari saqlanishi holati, arxiv ishi va ish yuritishni tashkil etilishi to'g'risida hisobotlarini eshitish, shuningdek boshqarma vakolatiga tegishli masalalar bo'yicha axborotni belgilangan tartibda so'rab olish, aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan bajarilishi zarur bo'lgan ko'rsatmalarni berish;

viloyat davlat, nodavlat arxivlari, idoralar, korxonalar, muassasalar va tashkilotlar, kutubxonalar va muzeylarning qo'lyozma bo'limlari, shuningdek fuqarolardan O'zbekiston Respublikasi Milliy arxiv fondining Davlat katalogi uchun tegishli ma'lumotlarni olish;

davlat hokimiyati organlaridan tugatilayotgan korxonalar to'g'risida ma'lumotlar olish;

mulkchilik shaklidan qat'iy nazar viloyatdagi korxonalar, muassasalar, tashkilotlar va nodavlat arxivlaridan arxiv ishi va ish yuritishning holati to'g'risida zarur materiallarni olish;

viloyat korxonalarini, muassasalarini va tashkilotlarini tomonidan ishlab chiqiladigan arxiv ishi va ish yuritish hujjatlarini tashkil etish masalalariga doir nizomlar, yo'riqnomalar, qoidalar, yig'majildlar nomenklaturalari, o'quv dasturlari va boshqa me'yoriy hujjatlarni kelishib berish;

nodavlat arxivlari tashkiliy hujjatlarini (ustav, ta'sis shartnomasi, muassislar yig'ilishi qarori) kelishib berish;

mansabdor shaxslarning korxonalar, muassasalar va tashkilotlarda saqlanayotgan O'zbekiston Respublikasi Milliy arxiv fondi hujjatlarining o'g'irlanishi, yaroqsiz holga keltirilishi, yashirilishi, yo'qotilishi yoki noqonuniy yo'q qilinishiga olib kelgan sharoitlar yaratganligi holatlari to'g'risida tergov organlariga xabar qilish;

arxiv ishi va ish yuritish masalalarini ko'rib chiqish uchun doimiy va vaqtinchalik idoralararo komissiyalar hamda kengashlar tuzish;

Boshqarma o'ziga yuklangan vazifalardan kelib chiqadigan o'z vakolatlari doirasidagi boshqa huquqlarga ham egadir.

Boshqarmaning mas'ul hodimlari o'z xizmat majburiyatlarini bajarish uchun davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, mulkchilik shakllaridan qat'iy nazar viloyat korxonalarini, muassasalarini, tashkilotlarining idoraviy arxivlariga va ish yuritish xizmatlariga o'rnatilgan tartibga kirish huquqiga egadir.

8. Boshqarma:

O'zbekiston Respublikasi Milliy arxiv fondi hujjatlarini shakllantirish;

Milliy arxiv fondining Davlat katalogini yuritish;

viloyat davlat arxivlarida saqlanayotgan hujjatlarni saqlanishiniva xavfsizligini ta'minlash;

arxiv hujjatlaridan fuqarolar, jamiyat va davlat manfaatlari uchun foydalanish;

hududdagi arxiv muassasalari faoliyatini tashkil etish uchun javobgardir.

1. BOSHQARMA FAOLIYATINI TASHKIL ETISH

2. Boshqarmaga viloyat hokimi bilan kelishilgan holda "O'zarxiv" agentligining Bosh direktori tomonidan lavozimga tayinlanadigan va lavozimdan ozod qilinadigan boshliq rahbarlik qiladi. (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004 yil 3 fevraldagi 49-son qarorining 6-bandiga muvofiq).

Boshqarma boshlig'i:

Boshqarma zimmasiga yuklatilgan vazifalar va funksiyalarni, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi "O'zarxiv" agentligi nizomlari, yo'riqnomalari, qoidalari, qarorlari, buyruqlari va ko'rsatmalarini bajarilishi uchun shaxsan javob beradi, boshqarma xodimlarining, shuningdek viloyat, shahar va tuman davlat arxivlari direktorlarining rahbarlik faoliyatidagi javobgarlik darajasini belgilaydi;

viloyat hokimining qarorlari, farmoyishlari hamda "O'zarxiv" agentligining bo'yruqlari va ko'rsatmalariga asoslangan holda ularning ijrosini ta'minlash maqsadida bo'yruqlar qabul qiladi va o'z tasarrufidagi tashkilotlarga bajarilishi majburiy bo'lgan ko'rsatmalar beradi;

boshqarma apparati xodimlarini, "O'zarxiv" agentligi bilan kelishilgan holda viloyat davlat arxivi direktorini, tegishli hokimlar bilan kelishilgan holda shahar va tuman davlat arxivi direktorlarini lavozimga tayinlaydi va lavozimdan ozod qiladi;

boshqarma devonining mehnatga haq to'lash fondini, shtatlar jadvalini, boshqarma devoni va viloyat, shahar va tuman davlat arxivlarining moliyalash xarajatlari smetasini tasdiqlaydi, viloyat hokimligi moliya boshqarmasi bilan kelishilgan holda mehnatga haq to'lash hamda rag'batlantirish tizimi va miqdorini o'rnatadi.

10. Boshqarma xodimlarining umumiy soni va tuzilmasi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi.

11. Boshqarmada tarkibi 7 kishidan iborat Direksiya tuziladi:

- boshqarma boshlig'i (Direksiya raisi);
- viloyat davlat arxivi direktori (Direksiya raisi o'rinbosari);
- boshqarma bosh mutaxassis (Direksiya kotibi);
- viloyat, shahar va tumandavlat arxivi direktorlari;

Direksiyaning Nizomi va uning shaxsiy tarkibi boshqarma boshlig'i tomonidan tasdiqlanadi.

Direksiya o'z majlislarida viloyatda arxiv ishi va ish yuritishni rivojlantirish, joriy va istiqbolli rejalarni bajarilishi, me'yoriy hujjatlar va uslubiy qo'llanmalarining loyihalarini, idoralararo munosabatlarni rivojlantirish, hamda davlat, nodavlat, idoraviy arxivlar, korxonalar, muassasalar tashkilotlarning arxiv ishi va ish yuritish bilan bog'liq masalalarini ko'rib chiqadi va qarorlar qabul qiladi.

Direksiya qarorlari bayonnoma bilan rasmiylashtiriladi va boshqarmaning buyrug'i bilan hayotga tadbiq etiladi. Boshqarma boshlig'i va va direksiya

o'rtasida kelishmovchilik paydo bo'lganda Boshqarma boshlig'i paydo bo'lgan kelishmovchiliklar to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi «O'zarxiv» agentligiga axborot bergan holda o'z qarorini hayotga tadbiq etadi. Direksiya a'zolari, o'z navbatida, o'z fikrini «O'zarxiv» agentligiga ma'lum qilishlari mumkin.

12. Boshqarma huzurida O'zbekiston Respublikasi Milliy arxiv fondi tarkibini belgilash, davlat, nodavlat va idoraviy arxivlarda saqlanayotgan hujjatlarning qimmatligini ekspertizadan o'tkazish, korxonalar, muassasa va tashkilotlar hujjatlarini tashkillashtirish va ish yuritish bilan bog'liq, amaliy masalalarni ko'rib chiqish uchun Ekspert-tekshiruv komissiyasi (ETK) faoliyat ko'rsatadi. Uning shaxsiy tarkibi va nizomi boshqarma boshlig'i tomonidan tasdiqlanadi.

13. Boshqarma mustaqil smetaga ega bo'lib, viloyat, shahar va tuman davlat arxivlarini hisobga olgan holda viloyat davlat byudjeti mablag'lari shuningdek, amaldagi qonun hujjatlariga zid bo'lmagan boshqa manbalar hisobidan moliyalashtiriladi. (viloyat moliya boshqarmasi bilan kelishilgan holda shahar va tuman davlat arxivlari tegishli shahar va tuman hokimliklari moliya bo'limlari tomonidan moliyalashtirilishi mumkin)

14. Boshqarma yuridik shaxs hisoblanadi, O'zbekiston Respublikasi Davlat gerbi tasviri tushirilgan hamda o'z nomi yozilgan muhr va blankalarga, bank muassasalarida hisob-kitob va boshqa hisob raqamlariga ega bo'ladi.

14. Boshqarmani qayta tashkil etish va faoliyatini tugatish ishlari O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari asosida amalga oshiriladi.